

Samarqand viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-iyul dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

I.CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


2026-yil 1-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 10 795 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 60 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 10 735 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 25 794,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 117,6 % ni tashkil etdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 2 839,0 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,2%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 22 955,6 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,8 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 105,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)

2026-yil yanvar-iyul



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024-2026 yillar yanvar-iyul, ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 379 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 49 ta, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 330 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 23 165,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,1 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 13 404,8 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,1 % ni, viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 57,9 % ni tashkil etdi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Paxtachi (101,6 marta), Urgut (4,9 marta), Qo'shrabot

(185,2 %), Pastdarg'om (120,8 %), Samarqand (112,2 %) tumanlari va Samarqand shahrida (129,6 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 993 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 972 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyul oylarida umum ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 19 479,4 mlrd so'mga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 68,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLA

[Ichki savdo aylanmasi](#)

Chop etishga mas'ul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: N.Abdiraimov Tel: +998712308000 (3040)	Ijrochi: Tel: +99866 235 14 42 e-pochta: info@samstat.uz	Manzil: 140100, Samarqand sh., U.Tursunov ko'chasi, 82
--	---	--	--